INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTITISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI

G.A. Xolmirzayeva
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi
Zuhriddin Yo'ldoshev
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
Jasmina Boltayeva
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20093974

Annotatsiya. Ushbu maqolada investitsion loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklarining tutga o'rni, banklarning investitsion faolligini yanada kengaytirish, uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirish hajmlarini oshirish va ularni mamlakatimiz iqtisodiyoti rovojiga qo'shayotgan hissasi ko'rib chiqiladi. Investitsion loyihalarni tijorat banklari tomonidan kreditlar orqali moliyalashtirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Tijorat banlari, investitsion loyihalar, xalqaro moliya institutlari, investitsion faollik, innovatsiyalar, kredit operatsiyalari, kapital, startaplar.

Kirish.

Bugungi kunda respublikamiz tijorat banlarining investitsion faolligini kengaytirilishini yanada rag'batlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalashga, yo'naltirilgan uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalash hajmlarini oshirish maqsadida ularning resurs bazasini mustahkamlanishini yaqqol kuzatishimiz mumkin. Mamlakatimiz iqtisodiyotini texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida ishlar jadal rivojlanmoqda. Bank kreditlari iqtisodiyotning muhim tarmoqlari rivojlantirilmoqda, yangidan-yangi korxonalar tashkil etilmoqda va aholi uchun qo'shimcha ish joylari yaratilmoqda, ilg'or texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishlar joriy etilayotganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida bank-moliya tizimini isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tijorat banklari nafaqat kredit beruvchi moliyaviy institut sifatida, balki investitsiya jarayonlarining faol ishtirokchisi, strategik hamkor va moliyaviy maslahatchi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ular investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, uzoq muddatli kreditlar ajratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, lizing, loyiha moliyalashtirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali iqtisodiyot rivojiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, bank tizimini liberallashtirish, kapital bozorini rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tijorat banklarining investitsiya loyihalaridagi rolini yanada kuchaytirdi. Ayniqsa, sanoat, qishloq xo'jaligi, infratuzilma, energetika va xizmatlar sohasida yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklarining ishtiroki tobora ortib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan, investitsiya loyihalarini rivojlantirishda tijorat banklarining o'rni, ularning moliyaviy mexanizmlari, imkoniyatlari hamda muammolarini o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur mavzuni tahlil qilish O'zbekiston Respublikasi bank tizimining investitsiya jarayonlaridagi ahamiyatini chuqur anglash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot investitsiya loyihalarini rivojlantirishda tijorat banklarining o'rnini aniqlash va baholashga qaratilgan bo'lib, unda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks tarzda

foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy tahlil uyg‘unligiga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasi bank-moliya tizimida amalga oshirilayotgan investitsiya jarayonlarining xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida iqtisodiy nazariya, investitsiya nazariyasi, moliyaviy vositachilik konsepsiyasi hamda bank kreditlash va loyiha moliyalashtirishga oid ilmiy qarashlar olindi. Ushbu nazariy qarashlar tijorat banklarining investitsiya jarayonlaridagi institutsional rolini aniqlashda qo‘llanildi.

Adabiyotlar tahlili.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklarining o‘rni masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda O‘zbekiston va xorijiy olimlar tomonidan turli nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari investitsiya jarayonlarida moliyaviy vositachi sifatida emas, balki iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi muhim institutsional subyekt sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi roli, asosan, milliy iqtisodiyot sharoitida tahlil qilinadi. Jumladan, E.A. Nozimov o‘z ilmiy ishlarida tijorat banklari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini batafsil o‘rganib, bank kreditlari, lizing va boshqa moliyaviy instrumentlarning real sektorni rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslab beradi. Muallifning ta’kidlashicha, banklar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda nafaqat mablag‘ ajratuvchi, balki loyiha samaradorligini baholovchi va risklarni boshqaruvchi subyekt sifatida ham faoliyat yuritadi.

I. Kamilovaning tadqiqotlarida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari va muammolari yoritilgan. Muallif O‘zbekiston bank tizimida uzoq muddatli resurslarning yetishmasligi, kredit risklarining yuqoriligi va investitsiya loyihalarini baholashda tajribaning cheklanganligi banklarning investitsion faolligini susaytiruvchi omillar ekanini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, u xorijiy banklar tajribasini joriy etish, loyiha moliyalashtirish (project finance) mexanizmlarini kengaytirish orqali banklarning investitsiya jarayonlaridagi rolini kuchaytirish mumkinligini asoslab beradi.

N. Olimova tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligini baholashga alohida e’tibor qaratib, bank kapitalining yetarliligi va kredit portfeli sifati investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan isbotlaydi. Uning fikricha, banklar investitsiya siyosatini uzoq muddatli strategiya asosida olib borishi iqtisodiyotda barqaror o‘sishni ta’minlaydi. Shuningdek, N. Ergashova banklarning investitsion-kredit salohiyati va uning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini tahlil qilib, bank resurslarining ko‘payishi investitsiya faolligining oshishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, J. Schumpeter tijorat banklarini innovatsiyalarni moliyalashtiruvchi asosiy institut sifatida ko‘rib, bank kreditlari yangi texnologiyalar va innovatsion investitsiya loyihalarining amalga oshirilishida hal qiluvchi rol o‘ynashini asoslab bergan. Uning fikricha, banklar iqtisodiy rivojlanishning “harakatlantiruvchi kuchi” bo‘lib, ular orqali investitsiyalar real sektorni tubdan o‘zgartiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston olimlari tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi rolini milliy iqtisodiyot sharoitida amaliy jihatdan yoritgan bo‘lsa, chet el olimlari ushbu jarayonni nazariy va institutsional jihatdan asoslab bergan. Mazkur ilmiy qarashlarning uyg‘unligi tijorat banklarining investitsiya jarayonlaridagi o‘rnini chuqurroq anglash va ularni rivojlantirish bo‘yicha samarali takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar.

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida tijorat banklarining ishtiroki so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Bank tizimida olib borilayotgan islohotlar, kredit resurslarining ko‘payishi va moliyaviy xizmatlar turlarining diversifikatsiyalashuvi investitsiya jarayonlarining jadallashuviga xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishda asosiy manbalardan biri bo‘lib, investitsiya loyihalarining uzluksiz amalga oshirilishini ta’minlamoqda.

Avvalo, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari sanoat va infratuzilma loyihalarining rivojlanishida muhim rol o‘ynamoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalar bank kreditlari hisobiga moliyalashtirilmoqda. Bu holat ishlab chiqarish hajmining oshishiga, mahsulot tannarxining pasayishiga hamda korxonalar moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, tijorat banklarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini investitsiya faoliyatiga jalb etishdagi roli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Banklar tomonidan imtiyozli kreditlar, lizing operatsiyalari va kafillik mexanizmlarining qo‘llanilishi tadbirkorlarning investitsion faolligini oshirib, hududiy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, aholi daromadlari oshmoqda va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ta’minlanmoqda.

Tahlil natijalariga ko‘ra, tijorat banklari xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ham muhim vositachi sifatida maydonga chiqmoqda. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari milliy iqtisodiyotga zamonaviy boshqaruv tajribasi, ilg‘or texnologiyalar va qo‘shimcha moliyaviy resurslarni olib kirishga xizmat qilmoqda. Bu esa O‘zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, uzoq muddatli resurslar yetishmasligi, kredit risklarining yuqoriligi, ayrim loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda yetarli tajribaning mavjud emasligi banklarning investitsiya faolligini cheklab qo‘ymoqda. Shuningdek, garov ta’minoti bilan bog‘liq talablarning qat’iyligi ayrim tadbirkorlar uchun moliyaviy resurslarga kirishni qiyinlashtirmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi natijalarga kelish mumkin: birinchidan, tijorat banklari investitsiya loyihalarini rivojlantirishda asosiy moliyaviy tayanch sifatida namoyon bo‘lmoqda; ikkinchidan, bank kreditlari hisobiga amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishiga va raqobatbardoshlikning oshishiga xizmat qilmoqda; uchinchidan, banklar faoliyatini yanada takomillashtirish, xususan, loyiha moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish va risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish investitsiya jarayonlarining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlillar tijorat banklarining O‘zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini rivojlantirishdagi o‘rni strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ularning investitsion faolligini qo‘llab-quvvatlash va mavjud muammolarni bartaraf etish orqali mamlakat iqtisodiy o‘sishini yanada jadallashtirish mumkin.

1-jadval.

Quyida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hamda tijorat banklarining ulushi keltirilgan.

Ko‘rsatkich	Miqdori (mlrd so‘m)	Ta’rif
Asosiy kapitalga investitsiyalar (2025, yanvar–iyun)	273 429,9	Barcha moliyalashtirish manbalari bo‘yicha jami
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lar orqali investitsiyalar ulushi	2,4 %	Investitsiyalar manbalari tarkibida
Tijorat banklari investitsiya kreditlari hajmi (taxm.)	6 562,3	273 429,9 × 2,4 % (~6 562,3 mlrd so‘m)

Yuqoridagi ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki 2025-yilning birinchi yarmida jami asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar 273 429,9 mlrd so‘m bo‘lib, shundan tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari orqali olingan investitsiyalar ulushi 2,4 %ni tashkil qilgan. Bu taxminan 6 562,3 mlrd so‘m miqdorida bo‘lib, tijorat banklarining investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash uchun jalb qilgan asosiy mablag‘laridan biridir.

Xulosa va takliflar.

Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan investitsiya kreditlari hajmi yildan-yilga oshib bormoqda va ular asosan sanoat, qishloq xo‘jaligi, infratuzilma hamda kichik biznes loyihalariga yo‘naltirilmoqda. Bu holat bank tizimining investitsiya faolligi ortib borayotganini hamda banklarning iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlariga faol hissa qo‘shayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida uzoq muddatli resurslar yetishmasligi, kredit risklarining yuqoriligi va ayrim loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashdagi kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Qo’shimcha qilib aytadigan bo’lsak, tijorat banklarining investitsiya loyihalaridagi roli nafaqat kredit ajratish bilan cheklanib qolmay, balki loyiha tashabbuskorlariga moliyaviy maslahat berish, risklarni baholash va investitsiya jarayonlarini monitoring qilish orqali ham namoyon bo‘lmoqda. Biroq, amaldagi bank amaliyotida loyiha moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi banklarning investitsion salohiyatini to‘liq ishga solishga to‘sqinlik qilmoqda.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, investitsiya loyihalarini rivojlantirishda tijorat banklarining rolini yanada kuchaytirish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, tijorat banklarida uzoq muddatli investitsiya kreditlari resurs bazasini kengaytirish, jumladan, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish va bank obligatsiyalarini chiqarish orqali investitsiya resurslarini jalb etish maqsadga muvofiqdir. Bu banklarning uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). Bank tiziminingrivojlanishko‘rsatkichlari. – www.cbu.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–429-son qarori. (2024). Tijorat banklarifaoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – Lex.uz
3. Karimov, D. (2023). Tijorat banklari va investitsiya faoliyatining o‘zaroaloqasi. //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali
4. Statistika agentligi huzuridagi Departament. (2024). Bank krediti va investitsiyaviyoqimlarstatistikasi. – www.stat.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi va kreditlash statistik ma’lumotlari**.** – Toshkent, 2021–2025 yillar.
6. Nozimov E.A. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklarining o‘rni // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar.
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo‘yicha statistik to‘plamlar**.** – Toshkent, 2021–2025.
8. Olimova N. Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni oshirish yo‘llari // Iqtisodiy tadqiqotlar.
9. Ergashova N. Banklarning investitsion-kredit salohiyati va iqtisodiy o‘sishga ta’siri // Moliyaviy tahlil jurnali. – Toshkent, 2023.